

O'zbekiston Respublikasi Aloqa,
Axborotlashtirish va Telekomunikatsiya Davlat
Qo'mitasi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti
Farg'ona Filiali

"Axborot texnologiyalari" kafedrası

"C++ da dasturlash"
fanidan

KURS ISHI

Bajardi:

*630-12 Guruh talabasi
Ibrohimov Dilshodbek*

Qabul qildi:

Bazarbayev M.
Hashimov A

Farg'ona-2015

TOSHKENT – JIZZAX SHAHARLARI ORASIDA TOLALI OPTIK ALOQA LINIYALARINI LOYIHALASHTIRISH MAVZUSIDAGI KURS ISHIGA TOPSHIRIQ

Trassani tanlash va asoslash .

Loyihaga zarur kanallar sonini hisoblash va uzatish tizimi turini tanlash .

Optik kabledagi talab etilgan optik tolalar soni va optik kabel turini tanlash .

OK ning uzatish parametrlarini hisoblash .

OKning mehanik parametrlarini hisoblash .

OTAL uchastkalararo uzunligi aniqlansin , va texnik nazorat qilinmaydigan regenerasiya punktlari (NRP) va texnik nazorat qilinadigan (ORP) regenerasiya punktlarini joylashtirilish sxemasi keltirilsin .

NRP ni masofadan elektr ta'minoti manbai bilan ta'minlash masalasi ko'rib chikilsin.

Optik tolali uzatish tizimini qurish qismida yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar orqali tuzish va OTAL qurilishini kanal kilometrdagi bahosini aniklash.

Tushuntirish yozuvida quyidagi chizmalarni bajaring:

tanlangan kabel kesimini ko'rinishi;

OTAL trassasidagi tugallovchi shaharlar oralig`idagi daryolar, avtomobil va temir yo'llar shartli ravishdagi chizmasi keltirilsin ;

"ORP" va "NRP" larni magistralda joylashtirilgan sxemasi berilsin

Kursning loyihalashtirish ishiga asos qilib olingan ma'lumotlar:

1. Jizzax – Toshkent oralig`idagi OTAL trassasi

2. Tashkil etiladigan kanallar soni:

a) RE- 5

b) TG(telegrafaloqa) - 48

d) TV – 1(12 ta raqamli televideniya)

3. OTdagi o'zakning sinish ko'rsatkichi – 1.49

4. OTdagi qobiqning sinish ko'rsatkichi- 1.48

5. Ajratilmaydigan ulagichlardagi so'nish dB – 0.014

6. Ajratiladigan ulagichlardagi so'nish dB – 0.5

Bajardi: Ibrohimov Dilshodbek

Qabul qildi: Yigitaliyev Z.

MUNDARIJA

1. Kirish.....	3
2. Loyihalashtiriluvchi aloqa magistralidagi oxirgi manzilgoxlar haqida ma'lumot.....	4
3. Loyihalashtiruvchi aloqa magistralida kanallar soni hisobi.....	6
4. Loyihalashtirilayotgan TOAL qurilish trassasini tanlash va asoslash.....	10
5. Sinhron raqamli transport moduli.....	14
6. Trassada qo'llanuvchi kabel tanlovi.....	17
7. Optik tolalar parametri hisobi.....	20
7.1. Kritik burchak.....	20
7.2. Nur o'tkazgichning aperturasi.....	21
7.3. Sinish ko'rsatkichining nisbiy farqi.....	22
7.4. Normallashtirilgan chastota.....	23
7.5. Optik tolalardagi modalar soni.....	24
7.6. Moda maydon diametri.....	25
7.7. Kritik to'lqin uzunlik.....	25
7.8. Kritik chastota.....	26
7.9. Fazalar koeffisienti va to'lqin uzunlik.....	26
8. Regenerasiya uchastka uzunlik hisobi.....	27
9. Tolali optik aloqa liniyasining o'tkazish qobiliyatining hisobi.....	33
10. SDH tarmoqlarining topologiyalari.....	35
11. Tolali optik aloqa liniya qurilishi.....	38
12. Tolali optik aloqa magistralini qurishdagi ish hajmi kerakli qurilmalar va material bo'yicha umumlashtirilgan smeta.....	42
13. Foydalanilgan adabiyotlar.....	43

KIRISH

Telekommunikasiya iqtisodiyotning va u bilan bog'liq bo'lgan axborotning demokratik jamiyat va davlatning ham "nerv tizimi", ham "qon tomiri" deyishimiz bejiz emasligini mustaqillik yillarida tushuna boshladik. O'zbekistonda demokratik yangilanish jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti telekommunikasiya tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalar va qurilmalar bilan jihozlash, aloqa korxonalarining o'z mablag'lari, mahalliy banklar, chet el banklari va firmalarining imtiyozli kreditlaridan foydalanib rivojlanish davr talabi ekanligini tasdiqlamoqda. Bu boradagi asosiy vazifa mamlakatimizdagi tub islohatlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'mish matbuot, telebideniya, radio, telefon, pochta, internet va yo'ldoshli aloqa tizimi faoliyatlarini yanada liberallashtirish, ularni mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan iborat. Ushbu hizmatlarning sifat darajasi muayyan jamiyat taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan biri deb xisoblasak, bu yo'nalishning xalqimiz tarixi, madaniyati, ma'naviyati, shahar va qishloqlarimiz infratuzilmasini yaxshilashda, joylarda xizmat ko'satish va servis tizimini rivojlantirish orqali aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash hamda joylardagi mavjud dolzarb masalalarni tezlik bilan hal etishda alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun axborot kommunikasiya texnologiyalarini jadal suratlar bilan rivojlantirish O'zbekistonni taraqqiyot yo'lidagi amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarish hamda ijtimoiy – tarixiy islohatlarimizning bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Telekommunikasiya yo'nalishi nafaqat respublikamizni axborotlashgan jamiyatga ylantirish uchun xizmat qiladi, balki umamlakatimiz iqtisodiyoti, madaniyati va tarixini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish va ko'satish uchun o'ziga xos xalq etuvchi tarmoq ro'lini o'ynaydi. Telekommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish o'z navbatida jahon aloqa tizimi texnologiyalari bilan raqobatlasha oladigan, zamon talabiga mos yuqori malakali kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Mustaqil O'zbekistonni Osiyo-Evropa tolali optik kabel tizimiga qo'shilishi, mustaqilligimiz mo'jizasidir, rivojlangan, kommunikasiya tizimi bo'lmasa o'zbekistonning kelajagi bo'lmaydi, deb Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashi mamlakatimizda aloqa tizimiga bo'lgan munosabatni va uning demokratik jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yangi pog'naga ko'tardim va demokratik boshqarishda bu tizim muhim omilga aylandi. Sobiq sovet davrining oxirgi 10 yilliklarida hamilgarigiday aloqa tizimini sifat jihatdan rivojlanishi uchun bo'lgan xarakteristikalar bilan tavsiflanadi, lekin O'zbekiston mustaqil bo'lganga qadar bu yo'nalishda bo'lgan xarakteristikalar etarlicha natija berdi deb bo'lmaydi. Chunki mustaqilligimizning birinchi yillaridayoq respublika aloqa tarmog'ining xolati ilg'or texnika va texnologiya talablariga, ayniqsa mustaqil davlatning xalqaro aloqalarini ta'minlashga bo'lgan talablarga javob bermasligi ma'lum bo'ldi. Bu kamchiliklarni nirinchiidan, aloqa sohasining rivojining miqdor jihatdan etarli rivojlanmaganligi, ikkinchiidan, ko'rsatilayotgan aloqa hizmatlari sifatining past darajaligi, hamda aloqa tizimining texnik rivojlanish darajasi bo'yicha jahon standartlariga

anchagina orqada qolib ketganligi, uchinchi dan, xalqaro elektr aloqasining o'ta markazlashganligi respublikamizning siyosiy-iqtisodiy va tarixiy mustaqilligi tamoyillariga mutloqo zid edi. To'rtinchidan, aloqa sohasi boshqaruv tizimining rivojlangan davlatlarda tarkib topgan boshqaruv tizimiga butunlay mos emasligi edi. Yuqoridagi muammolar o'z navbatida respublika aloqa sohasi sub'ektlarini tarmoqni rivojlantirish borasida chet el firma va kompaniyalari bilan munosib ravishda aloqa o'rnatishga imkon bermasdi. Ushbu kamchiliklarni tugatishga qaratilgan chora tadbirlar respublikamiz rahbariyati tomonidan mustaqilligimizning daslabki yillarida davlat axborot-kommunikasiya siyosatini ng asosiy mazmunini etish bilan birgalikda uning jaxon andozalariga mos huququy asoslari yaratildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng telekommunikasiya sohasida ham juda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, respublika aloqa tizimini yasngi pog'onaga ko'tarishda jahon aloqa tizimi andozalariga moskeladigan xuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bular jumlasiga "Aloqa to'g'risida"gi qonun, "telekommunikasiya to'risida"gi qonun Prezidentimizning "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish , internet xalqaro axborot tizimiga keng ko'lamda kirishni ta'minlash to'g'risida"gi, handa 2002 yil 6 iyundagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya tehnalogiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'risida" gi, 2004 yilda "Yo'ldoshli aloqa tizimlari orqali teleradio eshittirishlarni tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, Toshkent elektrotehnika aloqa institutini Toshkent axborot texnalogiyalari Universitetiga aylantirilishi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"asosida to'plangan tajribalarini og'ishmay izchillik bilan amalga oshirishidahamda respublikada qabul qilingan " O'zbekiston Respublikasi telekommunikasiya tarmogini 2010 yilgacha taraqqiy ettirish va rivojlantirish milliy dasturi"ni hayotga joriy etishda jamiyatimizning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida telekommunikasiya sohasini shahar, tuman va qishloqlarimizda rivojlanib borishida katta qonuniy sharoit yaratib berdi. Hozirgi kunda telefon aloqosi bo'yicha 180 mamlakat bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'lanadigan xalqaro aloqa kanallariga egamiz. Telekommunikasiya sohasiga oid chet el loyihalarining respublikamizda amalga oshirilishi natijasida respublikamiz bo'yicha yuqori tezlikli raqamli kanallar tashkil etildi, internetga ulanish kanallari , teleradio eshittirish va ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini tashkil etish, masofadan turib o'qitishga muayyan imkoniyatlar yaratildi, eskirgan stansiyalar o'rniga zamonaviy raqamli stasiyalar 100% almashtirildi. Telekommunikasiya sohasini rivojlanishida malakali mutahassislarni o'rni juda kattadir. 2001-2007 yilar davomida respublika Aloqa va Axborotlashtirish Agentligi etuk mutahassislardan 17 tadan ortiq kadrlar Xitoyda malaka oshirib keldilar. Prezidentimiz I.A. Karimov respublikamizda tele-radio va aloqa, industriya bozorini rivojlantirish , tijorat va hududiy nodavlat teleradiostudiyalarining faoliyat yuritishi uchun zarur shart – sharuit lar yaratish, chora tadbirlar majmuini yuqoridagi qonun, qaror, farmon va dasturlar asosida oshirishni ko'rsatmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil, demokratik jamiyatimiz taraqqiyotining muhum omili hisoblangan aloqa va axborotlashtirish tizimini rivojlantirishda

kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi yangicha yo'nalishning zaruriyati va mustaqilligimizni mustahkamlash ,milliy ong va tarixiy madaniyatimizni singdirishdagi muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu kurs ishimda Jizzax va Toshkent shaharlari o'rtasida optik aloqa liniyalarini loyihalashtirish ishlari olib borilgan.

2.Loyihalashtiriluvchi aloqa magistralidagi oxirgi manzilgoxlar xaqida ma'lumot.

Toshkent

Toshkent viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoli - sharqiy qismida 1938 yil 15 yanvarda tashkil qilingan.

Toshkent viloyati shimoli – g'arbdan qozoqiston Respublikasi, shimoli - sharqdan qirg'iziston Respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi, janubi – g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni - 15.627 km² ,

Aholisi – 2353 ming kishi (2002 y)

Viloyat tarkibida 15 ta tuman - Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rqon, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, Chinoz, YUqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, qibray, quyi Chirchiq tumanlar, 17 ta shahar - Angren, Bekobod, Bo'ka, Do'stobod, Keles, Olmaliq, Oqqo'rqon, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, To'ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiyo'l, Yangiobod, g'azalkent shaharlari kiradi. Viloyatda bundan tashqari 18 ta shaharcha - Alimkent, Bo'zsuv, Gulbahor, Zafar, Iskandar, Krasnogorsk, Nurobod, Olmazor, Salor, Tuyabo'qiz, Chiqiriq, Chorvoq, Eshonguzar, Yangibozor, Yangichinoz, Yangihayot, O'rtaovul, qibray shaharchalaridan va 146 ta qishloq fuqarolik yiqinidan tarkib topgan.

Toshkent viloyatida mustahkam avtomobil va temir yo'llar bunyod etilgan. Viloyatdagi temir yo'llar uzunligi 354.2 kmdan ortiq, va ular orqali elektrlashgan poezdlar qatnaydi. Viloyat ahamiyatidagi qattiq qoplamli avtomobil yo'llar uzunligi 6.6 ming kmdan oshadi.

Toshkent viloyatining markazi - Toshkent shahri.

O'rta Osiyoning eng yirik shaharlaridan bir Respublikaning shimoli-sharqiy qismida Chirchiq daryosi havzasida, Dengiz sathidan 440-480m balandlikda joylashgan.

Iqlimi kontenental, qishi ham qorli, ko'pincha iliq keladi, qishda minimal temperatura -24°. Yoz uzoq davom etadi, maksimal temperatura +43°. Chirchiq daryosidan chiqarilgan Bo'zsuv, Solar, Anhor, Korasuv, Oqqurqon, Bo'rjar, Oqtepa, qora qamish va boshqa kanallar butun shaharni kesib o'tib, shahar iqlimiga mu'tadil ta'sir ko'rsatadi. Toshkent - eng qadimgi shaharlardan biri. Uning tarihi 2 ming yildan ortiq.

Jizzax viloyati - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning markaziy qismida. Viloyat 1973 yili 28 dekabrda tashkil etilgan. Shimoliy-sharqda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy-g'arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 20,5 ming km², respublika maydonining 4,5 foiziga teng. Aholisi 1166.7 ming kishi (2011) dan ortiq aholi istiqomat qiladi, uning taxminan uchdan ikki qismi qishloq aholisi hisoblanadi. Jizzax viloyati hududida aholining o'rtacha zichligi 57 kishi.

Viloyat tarkibiga 12 tuman

kiradi: [Arnasoy](#), [Baxmal](#), [Do'stlik](#), [G'allaorol](#), [Jizzax](#), [Zarbdor](#), [Zafarobod](#), [Zomin](#), [Mirzacho'l](#), [Paxtakor](#), [Forish](#) va [Yangiobod](#).

Viloyatda 7 shahar mavjud, markazi [Jizzax shahri](#).

Viloyatda 2 ta oliy o'quv yurti, 31 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari bor.

8 shaharcha (Bo'ston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, O'smat, Uchquloch, Yangiqishloq, Qo'ytosh), 95 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2001). Markazi — Jizzax sh. Tabiati. Relyefi tog'lik, qir va tekisliklardan iborat. Janubiy qismini Turkiston tizmasining tarmoqlari (Molguzar tizmasi), g'arbini Nurota tizmasining sharqiy qismi egallagan. Shim., shim.-g'arbi va sharqiy qismi (Mirzacho'l va Qizilqum cho'lining jan.-sharqi) tekislikdan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Yanv.ning o'rtacha t-rasi —G dan —4° gacha, iyulniki 28°. Tog' oldilarida iqlim cho'l va dashtlarga nisbatan yumshoq. Yillik yog'in viloyat jan.da 400—500 mm, shim. da 250— 300 mm. Vegetatsiya davri 210—240 kun. Yillik quyoshli kunlar 2800—3000 soat. Eng yirik daryolari — Sangzor, Zominsuv. Tog'lardan oqib tushuvchi soy ko'p. Ekinlarni sug'orish uchun Tuyatortar kanali, 1- va 2-Jan. Mirzacho'l kanallari, Jizzax, Zomin, Qorovultepa suv omborlari qurilgan. 2001 y.da Arnasoy suv ombori qurila boshlandi. Arnasoy, Aydarko'l va Tuzkon ko'llaridan baliqchilikda foydalaniladi. Tog' yon bag'irlarida yovvoyi jiyda, archa, bodom, yong'oq, na'matak, zira, rovoch, zirk kabilar o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan oq tirnoqli ayiq, chiyabo'ri, tulki, quyon, qobon, bo'rsiq, jayra uchraydi; burgut, lochin, qora turna, bulduruq, tuvaloq, tustovuq, qirg'ovul, yovvoyi o'rdak, kaklik kabi qushlarning 150 dan ortiq turi mavjud. Viloyatda Zomin milliy bog'i, Zomin va Nurota davlat qurixonalari tashkil qilingan.

Tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremniy kislotasi, karbon gazi, ishqor bo'lgan shifobaxsh mineral suvlar bor. G'allaorol, Forish, Mirzacho'l tumanlarida balneologik sanatoriylar faoliyat ko'rsatadi. Sulfatxlorid natriyli Chimqo'rg'on balchig'idan fizioterapiya va davolash profilaktika muassasalarida foydalaniladi.

Foydali qazilmalardan oltin, kumush, volfram, qo'rg'oshin, rux, temir, molibden, marmar, vollastonit, bazalt, granit, korund, ohak bor.

Aholisi 1 km² ga o'rtacha 57 kishi to'g'ri keladi (2001). Aholining ko'pchiligi o'zbeklar, shuningdek, qozoq, qirg'iz, tojik, rus, tatar, turk, ukrain, nemis, fors,

arman va b. Jami 70 dan ortiq millat vakili yashaydi. Shaharliklar 30%, qishloq aholisi 70% ni tashkil etadi.

Xo'jaligi. J. v. respublika i. ch.da va madaniy taraqqiyotida salmoqli o'rin tutadi. Xususan, paxta, g'alla, sabzavot, meva, chorva mahsulotlari yetishtiriladi. Bog'dorchilikni rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. Qurilish materiallari, xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar salmog'i oshdi. Viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2,5 mlrd. so'mdan ziyod kredit mablag'lari ajratildi. Faoliyat ko'rsatayotgan 9400 ga yaqin xo'jalik sub'yektlarining qariyb 8300 tasi nodavlat xo'jaliklaridir.

Transporti. T. y. viloyatda asosiy transport turlaridan. Umumiy uz. 217 km (2001). Avtomobil yo'llari ham salmoqli o'rin tutadi. Havo yo'llari Jizzax sh.ni Toshkent va b. viloyat markazlari, shuningdek, Kavkaz, Qrim b-n bog'laydi. Jizzax sh. ko'chalarida trolleybus qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Viloyatda 5 muzey (Jizzax viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Sharof Rashidov muzeyi, Zomin tarixi muzeyi, Hamid Olimjon muzeyi, Mehnat Qahramoni X. Nosirov muzeyi), 289 jamoat kutubxonasi (8 mln. nusxadan ortiq asar), 126 klub, 12 tuman markaziy, 73 qishloq va shahar madaniyat uylari, 77 badiiy havaskorlik, 54 folklor-etnografik jamoalar, 12 maqomchilar guruhi, 60 xoreografik rake dastalari, vokal va estrada guruhlari faoliyat ko'rsatadi.

3. LOYIXALASHTIRUVCHI ALOQA MAGISTRALIDA KANALLAR SONI XISOBI

Loyixalashtiriluvchi manzilgohlar orasida lozim bo'lgan kanallar soni shu manzilgohda yashovchi aholi soni va bu manzilgohlar orasidagi aholining ma'lum bir guruhini bir-biri bilan o'zaro qiziquv darajasiga bog'liq.

Har qanday viloyat markazi va shu viloyatda yashovchi aholi soni statistik ma'lumotlar yoki ohirgi marta aholini ro'yhatga olgan ma'lumotlar asosida olinadi. Loyihalashtirishning kelajagi uchun aholining o'sishi e'tiborga olinadi. Aholini sonining o'rtacha o'sish hisobiga bo'ladigan miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanadi;

$$H_t = H_0 (1 + P/100)^t, \text{ kishi} \quad (3.1)$$

Bu erda:

H_0 - aholining ro'yhatga olish vaqtidagi soni, ming kishi;

P - manzilda aholining o'rtacha yillik o'sishi, %

Men o'z kurs ishimda Jizzax viloyati uchun $P=3\%$, Toshkent viloyati uchun esa $P=3\%$ oldim.

t - aholini ro'yhatga olish va loyihalash vaqti o'rtasidagi davr, yil.

$$t = t_{lv} - t_{ro}, \text{ yil} \quad (3.2)$$

Bu erda:

t_{lv} - loixalashtirish vaqti : t_{ro} - ro'yhatga olish vaqti, yil.:

Toshkent viloyotida istiqomat qiladigan aholi soni **2352000** kishini tashkil etadi (**2002 yil**).

Jizzax viloyatida istiqomat qiluvchi aholi soni **1166700** kishini tashkil etadi (**2011 yil**).

Yuqoridagi formulalar asosida aholi sonini 2 ta davrga nisbatan qiymatini hisoblaymiz. (**2002-2015-2040**)

1 davr :

$$t_{lv} = 2015 \text{ yil}; \quad t_{rv} = 2002 \text{ yil}; \quad t = 2015 - 2002 = 12 \text{ yil};$$

Bundan biz 2015 yil uchun loyihalashtirilayotgan manzildagi aholi sonini aniqlaymiz.

Jizzax viloyatining 2015 yildagi aholi soni quyidagicha: **P=3**

$$H_t = H^{2011} (1 + P/100)^4 = 1166700 (1 + 0.03)^4 = 1313131 \text{ kishi};$$

2-davr :

$$t_{lv} = 2040 \text{ yil}; \quad t_{rv} = 2015 \text{ yil}; \quad t = 2040 - 2015 = 25 \text{ yil};$$

Bundan biz 2040 yil uchun loyihalashtirilayotgan manzildagi aholi sonini aniqlaymiz.

Jizzax viloyatining 2040 yildagi aholi soni quyidagicha: **P=3**

$$H_f = H^{2015} (1 + P/100)^{25} = 1313131 (1 + 0.03)^{25} = 2749404 \text{ kishi};$$

Toshkent viloyatining 2015 yildagi aholi soni quyidagicha: **P=3**

$$H_t = H^{2002} (1 + P/100)^{13} = 2353000 (1 + 0.03)^{13} = 3455459 \text{ kishi}$$

Bundan biz 2040 yil uchun loyihalashtirilayotgan manzildagi aholi sonini aniqlaymiz.

$$H_f = H^{2015} (1 + P/100)^{25} = 3455459 (1 + 0.03)^{25} = 7232276$$

Loyihalashtirilayotgan davrlar orasidagi aholi sonlari qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan:

3.1 jadval

Toshkent	Aholi soni	Jizzax	Aholi soni
Yillar	Ming kishi.	Yillar	Ming kishi.
2002-yil	2353	2011	1166.7
2015	3455.459	2015	1313.131
2040	7232.275	2040	2749,404

SHaharlararo telefon stansiyasining xizmat ko'rsatish doirasidagi abonentlar soni quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$m_{a,b} = (0.25 \dots 0.30) * H^t, \text{ abonent} \quad (3.3)$$

Bu erda : (0.25...0.30) - aholining telefon xizmatidan foydalanuvchilar soni.

Men kurs ishimda **$m_{a,b} = 0.26 * H^t$** , abonent tanladim.

Jizzax viloyati uchun:

$$m_a = 0.26 * 2749,404 * 10^3 = 714845 \text{ kishi};$$

Toshkent viloyati uchun:

$$m_b = 0.26 * 7232.275 * 10^3 = 1880391 \text{ kishi};$$

3.1 jadval

Yillar	Jizzax viloyati, ming kishi m_b	Toshkent viloyati, ming kishi m_a
2040	714.845	1880.391

Odatda manzilgohlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar soni iqtisodiy, madaniy va boshqa o'zaro bog'lanishlar hisobiga bo'lib, u statistik ma'lumotlar asosida olib boriladi, qamda aloqa manzilgohlarini ohirgi yildagi o'zaro aloqa ayirboshlash ma'lumotlari qisobiga olinadi. Bunday aloqa almashinuvi f tortilish koefitsienti orqali hisoblanadi, bu qiymat keng oraliqda (0,1 dan 12 % gacha) bo'lgani uchun kurs loyiha ishimizda f - topshiriq vazifa asosida olinadi. Bunda intilish koefitsientini hisobga olgan holda umumiy shaqarlararo aloha kanallariini qisoblab chiqishimiz zarur. Telefon kanallar sonini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$n_{tf} = \alpha * f * y * \frac{m_a * m_b}{m_a + m_b} + \beta$$

Bu erda: α va β – o'zgarmas koefitsientlar bo'lib o'zaro to'liq imkoniylik bog'lanish paytida va yo'qotuvchanlik P qiymatlar bo'lganida

$\alpha = 1,3$ va $\beta = 5,6$ qiymatlarga ega;

f – intilish yoki bog'lanish koefitsienti topshiriq vazifada keltirilgan;

Mening varyantimda bu qiymat $f=5\%$ yani $f=0.05$ ga teng

y - solishtirma yuklama, ya'ni bitta abonent tomonidan telefon stansiyaga tushuvchi yuklama, $y=0,05$ erl;

m_a, m_b – “a” Ba “b” ohirgi manzilgohlardagi abonentlar soni

$$n(tf) = 1.3 * 0.05 * 0.05 \frac{714845 * 1880391}{714845 + 1880391} + 5.6 = 1688.9$$

Ya'ni **1689 ta kanal**

Loyihalashtirilayotgan magistraldagi telefon kanallaridan tashqari boshqa turdagi aloqa vositalar yordamida ahborotlar uzatilishi va qabul qilinishi mumkin, bunday ahborotlar: telegraf, faksimil, ma'lumotlarni uzatish, gazeta sahifalarini uzatish, elektron pochta, simli radioeshittirish, televidenie va h.z. Bunday ahborotlar uzatish kanallari odatda telefon kanallari orqali tashkil qilinib, aniqlanishi mumkin.

Bu erda:

$2 n_{tf}$ — ikki tomonlama tashkil etiladigan telefon kanallar soni

n_{tg} — tashkil etiladigan telegraf kanallar soni ;

n_{re} — tashkil etiladigan radio eshittirish kanallar soni ;

n_{mu} — tashkil etiladigan ma'lumotlar uzatish kanallar soni;

n_{tv} — tashkil etiladigan televideniya uzatish kanallar soni;

n_{re} -radio eshittirish u 3 ta ($n_{re} = 3n_{tf}$) telefon kanalini egallaydi .

Men o'z ishimda 5 ta radio eshittirish oldim. $n_{re} = 15n_{tf}$

n_{tv} -bitta analogovoy televideniya 34 Mbit/s tezlikda uzatiladi va u 480 ta telefon kanaliga teng. 34 Mbit ning ichida 10-12 ta raqamli televideniya uzatishimiz mumkin.

n_{tg} -telegraf uning qiymati $1/24 * n_{tf}$ ga teng. Men 48 ta telegraf oldim, bundan ulardagi telefon kanallar soni quyidagicha. $48n_{tg} = 2n_{tf}$

n_{mu} -internet tarmog'i men bunga 2 Mbit li oqimidan 50 ta ajratdim.

$$n_{mu} = 32 * 50 = 1600$$

$$N_{um} = 2 * 1689 + 2 * 15 + 2 * 2 + 2 * 480 + 2 * 1600 = 7567 \text{ ta kanal}$$

Nechta E1 oqim kerakligini topamiz:

$n = 7567 / 32 = 237$ demak bizga 237 ta E1 oqimi kerak ekan.

4. LOYIHALASHTIRILAYOTGAN MAGISTRAL TRASSASINI TANLASH VA ASOSLASH

Aloqa liniya trassasini tanlash asosan aloqa ohirlash manzilgohlarni joylanishiga bog'liqdir. Trassani tanlashda quyidagilarni hisobga olish zarur. Trassaning uzunligi qisqa bo'lishi kerak, halaqit beruvchi sabablari kam bo'lib, qurilishni murakkablashtirmasligi va narhlarni oshib ketmasligi, texnik ekspluatatsiya xizmatlarini olib borishni engillashtirish, kuchli toklardan va atmosferadan hosil bo'luvchi toklardan muhofaza etish uchun kam bo'lishi kerak. Quyida aloqa trassasidagi kabellarni boshqa inshootlar bilan minimal yaqinlashish masofasi keltirilgan:

- ✓ avtomobil va temir yo'llar hamda daryolardan – 100 m
- ✓ avtomobil va temir yo'llar chetidan – 5 m;
- ✓ shahar tashqarisidagi neft quvridan – 10 m;
- ✓ shahardagi gaz quvurlari va issiqlik quvurlaridan – 1 m;
- ✓ shahardagi uylarni qizil chiziqidani – 1,5 m;

Korroziyadan, yashindan, EUL va elektrlashtirilgan temir yo'llardan muhofaza etish bo'yicha quyidagi solishtirma qarshilikka ega bo'lgan erlarda (ρ), kamida

- ✓ $\rho = 100 \text{ Om/m}$ gacha..... $0,83 \sqrt{\rho}$, m
- ✓ $\rho = 500 \text{ Om/m}$ gacha.....10 m
- ✓ $\rho = 1000 \text{ Om/m}$ (gacha) dan yuqori bo'lganda..... $0,35 \sqrt{\rho}$, m
- ✓ Xavodagi aloqa linyalarida qo'llaniluvchi yashin qaytargichdan.....25 m
- ✓ Yuqori voltli kabeldan0,5 m

Er qa'rining harakterini aniqlash uchun har bir kilometrda chuqurligi 1,2 metrgacha qazish (shurflash) ishlari olib boriladi. Agar er osti inshootlari liniya trassasi bilan kesishadigan bo'lsa, u holda shu kesishadigan inshootga taaluqli korhonalarning vakili qatnashuvida izlanuv ishlari olib boriladi. Bundan tashqari erning o'tkazuvchanligi ham o'lchanadi. qurilish ishlarini bajarish uchun qurilish rejalari tuziladi, bunda qaerga qanday materiallarni jamlash va kerakli asbob anjomlar yig'ish omborhonalari tayinlanadi.

4.1. Magistral trassani tanlash va asoslash.

Tolali optik aloqa liniya trassasi topshiriq vazifasi qilib berilgan ikkita oxirlash manzilgohlari oraliqida tanlanadi. Trassa tanlovi olib borishda quyidagi talablar bajarilishi lozim. Magistral trassa oralig'idagi masofa minimal bo'lishi kerak, ya'ni berilgan topshiriqdagi manzilgohlar orasidagi masofa qisqa bo'lmog'i lozim. Magistral trassa o'tadigan yo'lda tabiiy va sun'iy kesishuvlar minimal bo'lishi kerak. Iloji boricha loyihalashtiriluvchi magistral aholi yashaydigan manzilgohlardan o'tishi va bu manzilgohlarda aloqa tashkil etish imkoni bo'lishi kerak.

Magistral trassa shahar tashqarisida avtomobil yo'li yoqasidan o'tmog'i lozim, agar avtomobil yo'li bo'lmasa, u holda temir yo'l yoqasidan o'tishi kerak. Daryolar va suv xavzalari bilan kesishuvlarda iloji boricha daryoning kengligi kichik bo'lgan, toshloq tuproqlari kam va daryo qirg'oqlari yuvilib ketmaydigan joylaridan o'tishi kerak bo'ladi. Tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi: trassa uzunligi, turli xil kesishuvlar soni, suv xavzalari, temir yo'l liniyalari, yirik avtomobil yo'llarning soni iloji boricha kam bo'lishi kerak. Loyixalashtirilayotgan magistral trassada aholi yashaydigan manzilgohlarning bo'lishi va ular kafolatlangan elektr manba bilan ta'minlanganligi uchun bu erlarda regeneratsiya manzilgohlarni tashkil etish mumkin.

4.1-rasm. Toshkent-Jizzax avtomobil yo'li



4.1– жадвал

Вариант тартиб рақами	Алоқа линия трассаси ўтадиган аҳоли яшайдиган манзилгоҳлар	Трасса узунлиги, км.	Умумий узунликлар, км			
			Дарёлар	Темир йўллар	Автомобил йўллар	
1	Toshkent-Guliston	120	1	2	1	
2	Guliston-Jizzax	80	2	1	1	
Jami:	Toshkent-jizzax	200 km	3	3	2	

5. SINHRON TRANSPORT MODUL SATHI VA OPTIK KABEL RUSUMINI TANLASH:

Analog abonent linyalari avvaliga **PDH** texnologiyasi qo'llanilgan. PDH **IKM 30, IKM 120, IKM 480 , IKM 1920** texnologiyalari asosida ishlagan, ular simmetrik –koaksial kabellarda qo'llanilgan. Kanallar soni ortib brogan sari PDH o'z o'rnini SDH ga bo'shatib berdi.

Tolali optik liniya magistralini loyixalashtirishda raqamli aloqa uzatish vositalarini qo'llash zarur.

Bugungi kunda bunday aloqa uzatish vositalari vazifasini sinhron raqamli ierarhiya (SDH - Synchronous Digital Hierarchy) turkumiga mansub bo'lgan aloqa uzatish vositalari bajaradi. Vaqt usulida xar bir kanal uchun belgilab qo'yilgan oraliq ajratiladi Bunda qaytarilish davri 125 mksga teng bo'ladi va ular transport modullari yordamida amalga oshiriladi. Transport modullari o'zlarining sathilari yoki ma'lumotlarni uzatish tezliklari va tarmoqda xosil qilinadigan uzatiladigan kanallar soni bilan farqlanadi. SDH asosida ishlaydigan STM 63 ta E1 oqimini o'z ichiga oladi.

SDH transport moduli beshta sathga bo'linadi. 5.1- jadvalda SDH transport modulini sathlari keltirilgan.

5.1-jadval

SDH transport modulining sathi	Transport moduli	Uzatish tezligi, Mbit/s	Telefon kanallari soni	E1 Ta	E2 ta	E3 ta
SDH ning birinchi sathi	STM – 1	155,52	1890	63	8	2
SDH ning ikkinchi sathi	STM – 4	622,08	7560	252	32	8
SDH ning uchinchi sathi	STM – 16	2488,32	30240	1008	128	32
SDH ning to'rtinchi sathi	STM – 64	9953,28	120960	4032	512	128
SDH ning to'rtinchi sathi	STM – 256	39813,12	483840	16128	2048	512

Bizga ma'lumki, telekommunikatsiya tarmoqlari global, magistral (milliy), mintaqaviy va mahalliy tarmoqlarga bo'linadi. 5.2 - jadvalda turli hil transport modulining sathlarini turli aloqa tarmoqlarida qo'llanishi ko'rsatilgan.

5.2-jadval

Tarmoqlar L	Transport modullari
Global	STM – 256
Milliy	STM – 64, STM – 16
Mintaqaviy	STM – 4, STM – 16
Maxalliy	STM – 1, STM – 4, STM – 16
Lokal	STM – 1, STM – 4

Xisoblab chiqilgan trassa magistralidagi kanallar soni yoki raqamli oqimlar soni asosida loyihalashtirilayotgan aloqa trassa uchun transport modulini tanlaymiz.

$$N_{tr.mod} = \frac{N_{um}}{n_{tr.mod}}, \quad \text{dona} \quad (5.1)$$

Bu erda:

$N_{tr.mod}$ – loyihalashtirilayotgan trassada kerak bo'ladigan transport modullar soni, dona;

N_{um} – loyihalashtirilayotgan trassa uchun xisoblab chiqilgan umumiy kanallar soni;

$n_{tr.mod}$ – bitta transport moduli yordamida xosil qilinadigan kanallar soni.

Transport moduli yordamida ko'p kanalli aloqani tashkil qilish uchun kanallar jamlanib, ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish uchun ikkita optik tola zarur bo'ladi.

U holda loyihalashtirilayotgan trassasi uchun optik kabelda bo'ladigan optik tolalar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N_{tola} = N_{tr.mod} (2 + 2_{zax}), \quad (5.2)$$

Bu erda:

N_{tola} – loyihalashtirilayotgan aloqa trassada qo'llanadigan kabeldagi optik tolalar soni;

$N_{tr.mod}$ – loyihalashtirilayotgan aloqa trassasida qo'llanuvchi transport modullar soni;

5.1- formulaga asosan xisob kitob ishlarini olib boramiz, hamda transport modulini tanlaymiz.

$N_{um} = 7567$ xisoblab topilgan kanallar soni;

Birinch STM-16 ni xisoblab ko'ramiz;

$$n_{tr.mod} = 30240$$

$$N_{tr.mod} = \frac{7567}{30240} = 0.25$$

$$N_{tr.mod}$$

Demak STM -16 ni tanlaymiz.

Bir transport moduli yordamida aloqani tashkil qilish uchun kabeldagi optik tolalar sonini 5.2-formulaga asosan aniqlaymiz.

$$N_{tola} = 1 * (2 + 2_{zax}) = 4$$

Optik kabeldagi tolalar sonini bilgan holda, tolalar joylashgan modullar soni va kabel turini bilishimiz mumkin. Kabel turini tanlash jarayonida uni yotqizilish erlarini bilishimiz zarur, ya'ni toladan kanalizasiyaga, to'g'ridan to'g'ri erga yoki suv havzalaridan, yoki daryolardan to'lik erlardan o'tadigan erlarni bilishimiz kerak.


6-LOYIHALASHTIRILUVCHI TRASSA MAGISTRALI UCHUN KABEL TANLOVI

"CORNING CABLE SYSTEMS" (AQSH - Germaniya) firmasi optik kabellarining hisobi.

Optik kabelning konstruktiv tuzilishi bo'yicha o'zagi ikki hil tuzilishga ega - o'zagi profillangan qatlamli va modulli bo'ladi. Tolali optik kabellarda qo'llanuvchi modul plastmassa yoki termoplastik naychadan iborat bo'lib, u tolalarni tashqi mehanik va namgarchilikdan muhofazalaydi. Odatda modullar ichida 1 tadan 12 tagacha tola joylanishi mumkin.

Germaniya kabel ishlab chiqarish sanoatida qo'llanuvchi kabellar rusmlarining standartlari Germaniya Elektrmuhandislar Assositsiyasi VDE (Verband Deutscher Elektrotechniker-Association of German Electrical Engineers) tomonidan ishlab chiqarilgan. Shaharlararo optik tolali liniyalarida qo'llanuvchi kabellarni to'g'ridan-to'g'ri erga va telefon kanalizasiyasiga yotqizish mumkin. Bunday kabellar quyidagi belgilanishga ega: A-DF(ZN) 2 Y (SR) 2Y.

Kabelning o'zagida joylashgan 1 qattiqlovchi element stekloplastikdan iborat bo'lib, uning atrofida E 9/125 turidagi 2 bir modali tolalar termochidamli ftoroplastli 3 naychada joylashgan. Bunday optik tolalar joylashgan naycha modul deb ataladi. Markaziy qattiqlovchi element atrofida uchta moduldan tashqari ikkita polietilen to'ldirgichli kordel 4 o'ramlari o'ralgan. Modul va kordel o'ramlari kabelning o'zagini tashkil etadi. Bu o'zak ustiga ikki qavat nam o'tkazmaydigan qattiq qog'oz 5 va uning ustidan shoyi ip to'qimalari 6 o'ralgan. Kabelning ichki qobig'i 7 polietilendan iborat.



6.1-rasm. A-DF(ZN) 2Y (SR) 2Y 1x4 E 9/125 0.36 F 3.5 +0.22 H 18LG rusmdagi optik kabel

Optik kabellarni mexanik ta'sirlardan muhofazalash uchun ichki polietilendan iborat bo'lgan qobiq ustidan yostiqlik bajaruvchi 8 kabel qog'ozi va uning ustidan po'latdan qilingan to'liqsimon qobiq 9 qoplanadi. Po'lat qobiq polietilenli shlang tashqi qobiq 10 bilan qoplangan. Kabelning o'zagi gidrofob to'ldirgich 11 bilan germetizatsiya qilingan.

A-DF(ZN) 2 Y (SR) 2Y 1x4 E 9/125 0.36 F 3.5 +0.22 H 18LG rusmidagi optik kabel belgilanishidagi harfli va sonli belgilar quyidagilarni bildiradi:

A - liniya kabeli; D - ko'p tolali modul, to'ldirgichli; F - kabelning o'zagi gidrofob to'ldirgich bilan to'ldirilgan; (ZN) 2 Y - tashqi qobiq'i polietilenli; (SR) - to'liqsimon po'lat qobiq; 2Y - ichki qobiq'i polietilenli; 1 - modullar soni; 4 - moduldagi tolalar soni; E - shisha/shishadan iborat bo'lgan bir modali tola; 9 - o'zak diametri, mkm; 125 - tola qobiq diametri, mkm; 0,36 - so'nish koeffitsienti, dB/km; F -to'liqin uzunligi, 1.3 mkm; 3,5 - impulsning kengayishi (dispersiya hisobiga), ps/(nm h km); 0,22 - so'nish koeffitsienti, dB/km; H -to'liqin uzunligi, 1.55 mkm; 18 - impulsining kengayishi (dispersiya hisobiga ps/nm h km); LG - kabel o'zagi qatlamli o'ramdan iborat.

Mahalliy tarmoqlarda ba'zi bir holarda aloqa kabellari metropoliten kollektorlarida yotqizilishi mumkin. Bunday joylarda yotqizilgan aloqa kabellari odatda polivinilxlorid qobiqda bo'lib, ular yong'inga chidamli bo'lishlari kerak. Bu joylarda yotqiziladigan kabellarning konstruktiv o'zgarishni e'tiborga olingan holda A-DF(ZN) Y (SR) 2Y 1x4 E 9/125 0.36 F 3.5 +0.22 H 18LG rusmdagi optik kabel ishlatiladi.

Stansiya kabellari


Stansiya kabellarini ekspluatatsiya sharoitiga qarab quyidagi qator alohida talablar qo'yiladi, ular:

- kabellar yong'inbardosh bo'lib, yonmaydigan bo'lishi kerak;
- yong'in bo'lgan paytda kislotali gazlarni chiqarmasligi ya'ni galogensiz bo'lishi kerak;

- yonqin ta'siri paytida past tutun chiqaruvchi bo'lishi kerak.

Ko'p tolali stansiyaviy kabellar sifatida odatda, J-V V... TB 2 FR OR va J-VH ... TB 2 FR OR turli kabellar ishlatiladi.

Bu kabellar polivinilxloridli va galogensiz qobiqidan tashkil topgan. J - VY 12 E 9/125 0.5 F 3.5 + 0,3 H 18 TB 2 FR OR rusmli optik tolali aloqa kabelining ko'ndalang kesim yuzasi keltirilgan.



qoplama 5 va modul naychasi 6 dan tashkil topgan 12 ta bir modali zich joylashtirilgan modullar markaziy qattiqlovchi element atrofida buralgan. Modullar bo'yicha tashqi cho'zilish ta'sir kuchlarini bir tekisda taqsimlash uchun oramidli eshilgan iplar 7 qatlami (o'ramasi) mavjud. Kabel polivinilxloridli qobiq 8 va yorish uchun mahsus shnur 9 dan tashkil topgan.

J - VY 12 E 9/125 0.5 F 3.5 + 0,3 H 18 TB 2 FR OR rusmidagi stansiya kabelida harflar va sonli belgilanishlar quyidagilarni anglatadi:

J - stansiya kabeli; V - zich o'rnatilgan modul; Y - polivinilxloridli qobiq; 12 - modullardagi tolalar soni; E - bir modali tola; 9 - moda maydonini (o'zak) diametri, mkm; 125 - tola qobiq diametri, mkm; 0,5 - so'nish koeffitsienti, dB/km; F - to'lqin uzunligi 1.3 mkm; 3.5 - impulsning kengayishi (dispersiya hisobiga), ps/(nm h km); 0.22 - so'nish koeffitsienti, dB/km; H - to'lqin uzunligi 1.5 mkm; 18 - impulsining kengayishi (dispersiya hisobiga), ps/(nm h km); TB 2 - zich o'rnatilgan modul (ikkinchi modifikatsiya); FR - yong'in tarqatmaydigan qobiq; OR - kabeldagi tolalarni ajratish uchun mahsus shnur bilan jihozlangan qobiq.

Bu rusmdagi stansiya kabelining qurilish uzunligi 2000 m, uning ishlatilish temperaturasi -20°C dan +60°C da.


Xulosa: A-DF(ZN) 2Y (SR) 2Y 1x4 E 9/125 0.36 F 3.5+0.22 H 18LG rusumidagi kabelni tanlashimdan maqsad, bu kabel shaharlararo optik tolali liniyalarida qo'llanuvchi kabellarni to'g'ridan-to'g'ri yerga va telefon kanalizatsiyasiga yotqizish mumkin. Men bu kabelni buyurtma asosida 1 modulda 4 ta optik tola asosida tayyorlatdim. Bu kabel bizning sharoitlarga mos keladi

7.TOLALI OPTIK KABELNING OPTIK TOLALAR PARAMETR HISOBI.

7.1. Kritik burchak.

Bizga ma'lumki optik tolaning o'zak qobiq bo'linish muhiti vazifasini shaffof kvars shisha bajaradi, bunday kvars shisha faqatgina optik nurni qaytarish bilan birga yorug'lik nurini qobiq ichiga kirib borishini ham ta'minlaydi, demak uzatuvchi energiyani qobiq ichiga kirib yo'qotuvchanlik bo'lmasligi uchun, hamda o'rab turuvchi muhitga yoyilib ketmasligi uchun to'liq ichki qaytish shartini bajarish lozim.

7.1.-rasm



Optik tola i chegarasida iq bo'linishi chki qaytish burchagi yoki ikki muhit orasidagi kritik (chegaraviy) burchak deb ataladi.

Kritik burchagi uchun quyidagi nisbiylik mavjud:

$$\sin \alpha_0 = \frac{n_2}{n_1}$$

(7.1)

Bu erda:

n_1 - tola o'zak sindirish ko'rsatikichi, $n_1=1,49$;

n_2 - tola qobiq sindirish ko'rsatkichi, $n_2=1.48$

$$\sin \alpha_0 = \frac{1,48}{1,49} = 0,993$$

Demak kritik burchak optik tolaning o'zak - n_1 va qobiq- n_2 materiallarning sinish ko'rsatgichlariga bog'liq.

7.2. Nur o'tkazgichning aperturasi

O'zak va qobiq tayyorlanadigan materiallarning sindirish ko'rsatkichlari nisbatini optimal tanlash orqali yorug'lik nurining o'zak ichida to'liq ichki qaytishi ro'y beradi va nurning faqatgina optik tola o'zagi bo'ylab tarqalishi ta'minlanadi.

Uzatish uchun nur ma'lum bir burchak ostida optik tolaga kiritiladi.

Yorug'lik nurining tola o'zagiga maksimal tushish burchagi burchak aperturasi Θ_a deyiladi

Nur o'tkazgichning kirish yuzasidagi maksimal hosil qilinadigan nur o'tkazgich tolaning kiritiluvchi burchak aperturasi deb ataladi hamda u tolaning o'zak - n_1 va qobiq - n_2 sinish ko'rsatkichining nisbatiga bog'liq;

$$\sin \theta = \sqrt{n_1^2 - n_2^2} \quad (7.2)$$

$$\sin \theta = \sqrt{1.49^2 - 1.48^2} = 0.1$$

Burchak aperturasining sinusi sonli apertura deyiladi va NA harflari bilan belgilanadi (N-number-son, A-aperture-teshik). Sonli apertura quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$NA = \sin \theta_{\max} = \sqrt{n_1^2 - n_2^2} = n_1 \sqrt{2 \ell \Delta} \quad (7.2)$$


Bu erda:

Δ -sinish ko'rsatkichlarining nisbiy farqi.

$$NA = \sqrt{1.49^2 - 1.48^2} = 0.172$$

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, optik tolaning sonli aperturasi NA faqatgina o'zak va qobiqning n_1 va n_2 sindirish ko'rsatkichlariga bog'liq. Bunda har doim $n_1 > n_2$ shart bajariladi

Optik tolada yorug'lik nurining tarqalishi. Optik tolaning sonli aperturasi



7.3 Sinish ko'rsatkichining nisbiy farqi.

Bizga yorug'lik nur teoriyasidan ma'lumki nur o'tkazgichning apertura konusiga tushgan hamma nurlar nur o'tkazgich bo'ylab harakatlanadi. To'lqin teoriyasidan ma'lumki nur o'tkazgich bo'ylab faqatgina diskret burchakga ega bo'lgan ma'lum bir chegaralangan to'lqinlar harakatlanadi. Optik tola bo'ylab ruhsat etiladigan yorug'lik to'lqinlari modalar (shahsiy to'lqinlar) deb ataladi. Odatda modalar sinish ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lib, u normallashtirilgan (nisbiy) sinish ko'rsatkichlarini farqi $-\Delta$ orqali aniqlanadi:

$$\Delta = \frac{NA^2}{2n_1} = \frac{n_1^2 - n_2^2}{2n_1} \approx \frac{n_1 - n_2}{n_1} \quad (7.3)$$

